

**Ommaviy tadbirlar o‘tkazish uchun ro‘yhatga kiritiladigan obyektlarga
qo‘yiladigan asosiy talablar. Ichki ishlar organlari va boshqa mutasaddi
idoralar bilan hamkorlikda xavfsizlik nuqtayi nazardan komission tartibda
o‘rganib chiqishning ahamiyati**

Nasirov Xurshid Rustamovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlarga qo‘yiladigan asosiy talablar, unda Ichki ishlar organlari va boshqa mutasaddi idoralar bilan ommaviy tadbirlar o‘tkazish uchun ruxsat beriladigan obyektlarni xavfsizlik nuqtayi nazaridan komission tartibda o‘rganib chiqish ahamiyati. Shuningdek, milliy qonunchilik va normativ-huquqiy asoslari me‘yorlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ommaviy tadbirlar, o‘zaro hamkorlik, jamoat xavfsizligi, milliy qonunchilik, jamoat tartibi, davlat organlari, huquqiy asoslar.

O‘zbekistonda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida jamoat xavfsizligini ta‘minlashda birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish bosqichlarida vazifalaridan kelib chiqqan bir qator majburiyatlarni bajarish lozimligini anglatadi.

Ommaviy tadbirlar oldidan to‘liq rejalashtirish, tadbir o‘tadigan hududlarni xavfsizlik jihatdan tekshirish, xavfli omillarni oldindan aniqlash lozim. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga asosiy vazifa va majburiyatlarni yuklaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Ommaviy tadbirlar davomida jamoat xavfsizligini ta‘minlash juda dolzarb va mas‘uliyatli vazifa hisoblanadi. Ommaviy tartibsizliklar sodir bo‘lishi ehtimoli yuqori

bo‘lgan holatlarda jamoat xavfsizligini ta‘minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning va boshqa jamoatchilikni o‘zaro hamkorligi alohida e‘tiborni talab etadi. Ma‘lumki, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Mazkur funktsiyani amalga oshirish maqsadida turli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Jumladan, respublikamizda har yili minglab siyosiy, madaniy va sport ommaviy tadbirlarini o‘tkazilishi yurtimizdagi osoyishtalik va tinchlik hukmronligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda ommaviy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha yana bir muhim hujjat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini tahlil qilamiz.

Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish tartibini belgilaydi hamda ular ishtirokchilari, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ma‘muriyatlarining, ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari, shuningdek, davlat boshqa organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta‘minlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlari, majburiyatlari va huquqlarini tartibga soladi¹.

Bu Qoidalar shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish joylarini texnik va xavfsizlik jihatdan tekshirishni, ularning qurilish konstruksiyalarining barqarorligini va boshqa muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlanganligini ta‘minlashni talab qiladi. Tadbirlarni o‘tkazish joylarini muntazam ravishda monitoring qilish va davlat organlari tomonidan ularning xavfsizligini ta‘minlash choralari ko‘rilishi kerak.

Bir yilda kamida bir marta komissiya tomonidan, ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti ma‘muriyatining hamda boshqa manfaatdor tashkilotlarning vakillarini jalb qilgan holda qurilish konstruksiyalaridan foydalanishning ishonchliligi va barqarorligini, ularning yong‘inga qarshi va sanitariya-epidemiya qarshi xavfsizlik, tez tibbiy yordam ko‘rsatish, evakuatsiya qilish, kommunikatsiya, muhandis-texnik himoya qilish vositalari, ommaviy tadbirlar ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash tizimlari bilan jihozlanish tizimlariga qo‘yiladigan Yagona normativ-huquqiy talablarga, shuningdek ushbu Qoidalar talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlarining texnik tekshiruvi o‘tkaziladi. Tekshirish natijalari bo‘yicha dalolatnoma tuziladi, u aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish uchun ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyekti ma‘muriyatiga yuboriladi.

Ommaviy tadbirni o'tkazishda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi yoki fuqarolarning xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga tahdid soluvchi holatlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/2438871>.

yuzaga kelganda komissiya tomonidan yangi yuzaga kelgan holatlarni hisobga olgan holda, obyektning ruxsat berilgan ommaviy tadbirni o'tkazishga tayyorligini va ommaviy tadbirni o'tkazish uchun ommaviy tadbir tashkilotchisi va ommaviy tadbirni o'tkazish obyektining ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan tayyorgarlik chora-tadbirlari holatini o'rganuvchi ishchi guruh tashkil qilinadi.

Ommaviy tadbirni o'tkazish obyektida mavjud bo'lgan barcha muhandislik va xabar berish tizimlari, qo'riqlash va fizik muhofaza qilish, elektron-vizual kuzatish muhandis-texnik vositalarining uzluksiz ishlashini, xavfsizlikni ta'minlash tizimlarini boshqarishning statsionar (ko'chma) punktlarining tayyorligini, tomoshabinlar joylari (tribunalar), ommaviy tadbir ishtirokchilarini evakuatsiya qilish yo'llarining tayyorligini, o't o'chirish vositalarining mavjudligi va sozligini, ommaviy tadbirni o'tkazish obyektidagi xodimlarning favqulodda vaziyatlar kelib chiqqan taqdirda ularning harakatlarini tartibga soluvchi xizmat yo'riqnomalarini bilishlarini talab etiladi.

Ommaviy tadbirlar o'tkazish uchun ruxsat beriladigan obyektlarning xavfsizligini ta'minlash pasportida quyidagilar jamlanishi lozim²;

Hukumat qarori bilan tasdiqlangan ommaviy tadbirlar o'tkazish obyektlar ro'yxati, ommaviy tadbirlar o'tkazish obyektini to'g'risida umumiy ma'lumotnoma (tashkil topgan yili, maydoni, sig'imi va hokazolar), obyektning xizmat ko'rsatish turi bo'yicha guvohnomasi, obyektidagi inshootlar, binolar, xonalar, maydonlar, sektorlar, va avtoturargoh sig'imi to'g'risida to'liq ma'lumot va foto lavhalar, hududiy hokimliklar tomonidan ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun chiqarilgan qarori, binolar inshootlar yer kadastri, arxitektor va qurilish boshqarmasi yer maydoni pasporti, obyektning (evakuatsiya) tarh-chizmasi, ma'muriyatning ishchi xizmatchilar ro'yxati, ishchi guruhlar tomonidan tekshirish va inventarizatsiyadan o'tkazilganligi to'g'risida dalolatnoma, obyekt atrof hududida yashovchi ichki ishlar organlari profilaktik hisoblarda turgan va jinoyat sodir etib qidiruvda bo'lgan shaxslar, Nazorat-litsenziyalash faoliyatini tashkil qilish bo'limi ro'yxatidagi obyektlar, xizmat o'qotar

quroliga ega shaxslar hamda ov quroliga ega fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar, obyektlarda ijara shartnomasi asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar hamda ularning ishchi, xizmatchilari to'g'risida to'liq ma'lumotlar, obyektlarning tutash hududida joylashgan korxonalar, savdo tashkilotlari va ishchilari to'g'risida to'liq ma'lumotlar, umumiy obyektida mavjud videokuzatuv vositalari hamda kirish-chiqish joylarida o'rnatilgan "Intellektual yuzini tanib olish" (Face ID) dasturi orqali ishlovchi kameralar soni va ularni joylashuv chizmalari ko'rsatilgan holda bo'lishi talab etiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-oktyabrdagi 530-son "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6629448>.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining va Milliy gvardiyasining hududiy bo'linmalari o'zlariga birlashtirilgan alohida, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o'tkazishda, jamoat tartibini saqlashni tashkil etish maqsadida manfaatdor davlat organlari va tashkilotlarining birgalikda qabul qilgan qarorida belgilangan tartibda hamkorlikdagi rejalar (namunaviy) ishlab chiqish hamda obyektlarda tadbir ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida evakuatsiya qilish, kommunikatsiya, videokuzatuv, zamonaviy muhandis-texnik himoya vositalari, yongin va texnik xavfsizligi hamda atrofni yoritish tizimlaridan kelib chiqqan holda har bir obyektning xavfsizligini ta'minlash pasportini ishlab chiqadi.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish uchun ruxsatnoma olish talab qilinadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, har bir ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar belgilangan muddatlarda komissiya tarkibida sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda xavfsizlik nuqtayi nazaridan sinchkovlik bilan o'rganib chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 360-son “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha talablarni kuchaytirish to‘g‘risida” qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-oktabrdagi 530-son “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori.